Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak!

Turkiston

1925 yildan chiqa boshlagan

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATINING GAZETASI

2002-yil 11-iyun, seshanba
№ 71 (14562)

ФРАНЦИЯЛИК ТАЛАБАЛАР ЎЗБЕКИСТОНДА

Яқинда Франциянинг Страсбург журналистика олий мактабидан 44 нафар талаба ва 15 нафар устозлар юртимизга ташриф буюришди. Улар Фарғона, Тошкент, Самарқанд, Бухоро ҳамда Нукус шаҳарларида ўн тўққиз кун давомида, ўз амалиётларини ўтказишди. Ўзбек халқининг яшаш тарзи, урф-одатлари, тўй маросимлари, кўҳна ва навқирон тарихий обидалари билан яқиндан танишишди.

Франциялик талабалар амалиёт жараёнида юртимиз ҳақида ҳужжатли филмлар, мақола ва радио сценарийлар тайёрлашди. Ўзбекистондаги Франция маданият маркази билан ҳамкорликда "NEWS DILL" номли журнали нашрдан чиқариб, ўзбек талабаларига тақдим этишди.

Феруза ЁҚУБОВА

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ИСЛОМ КАРИМОВНИНГ ШАНХАЙ ҲАМКОРЛИК ТАШКИЛОТИ ДАВЛАТЛАРИ РАҲБАРЛАРИНИНГ САММИТИДА СЎЗЛАГАН НУТҚИ

Ҳурматли Владимир Владимирович,

Муҳтарам давлат раҳбарлари ва делегация аъзолари,

Аввало, Шанхай ҳамкорлик ташкилоти саммити иштирокчиларини қутлаб, ушбу анжуманда иштирок этаётган барча давлат раҳбарларига ўзимнинг самимий эҳтиромимни изҳор этишга ижозат бергайсиз.

Владимир Владимирович Путинга меҳмондўстлиги, самимияти ҳамда Россия ва Европа маданияти тарихида ўзига хос ўринга эга ажойиб Санкт-Петербург шаҳрида ўтаётган бу галги саммит юқори даражада ташкил этилгани учун алоҳида миннатдорлик изҳор этмоқчиман.

Шанхайда мазкур ташкилотимиз таъсис этилганидан буён ўтган бир йил мобайнида дунё ҳамжамияти ўз тараққиётининг фавқулодда мураккаб ва масъулиятли даврини бошдан кечирди. Бу давр фундаментал муаммолар ва халқаро хавфсизликка таҳдид, биринчи галда, сайёрамиздаги тинчлик ва барқарорликка энг кўп даражада хавф солаётган халқаро террорчилик таҳдидига тўқнаш келаётган сифат жиҳатдан янги дунё тартиботи билан тавсифланади.

Яқин ўтмишимиз воқеалари ва далиллари барчамиз эътиборга олишимиз лозим бўлган яна бир аччиқ ҳақиқатни намоён этди: нечоғлик мукаммал қурол ёки қудратли ва замонавий ядро-ракета воситаларига эга бўлмасин, дунёнинг ҳеч бир мамлакати бугунги кунда ўзини ушбу даҳшатли таҳдиддан холи деб ҳисоблай олмайди. Фақат биргаликдаги саъй-ҳаракатлар билангина халқаро ҳамжамият инсониятга хавф солувчи тобора кучайиб бораётган ана шу таҳдиддан халос бўла олади.

Шу муносабат билан биз Россия-Америка саммити натижаларини ва Москва шаҳрида имзоланган ҳужжатларни ҳамда Россия билан НАТО ўртасида сифат жиҳатдан янги муносабатлар тўғрисидаги Рим декларациясини қўллаб-қувватлаймиз ва юқори баҳолаймиз.

Эришилган келишувлар, бизнинг фикримизча, вужудга келаётган халқаро вазиятни оқилона ва тўғри баҳолаш натижаси бўлиб, ҳеч шубҳасиз, янги, ўзаро ишончга ҳамда бутун дунёдаги хавфсизликка асосланган концепция ишлаб чиқишга ёрдам беради.

Ҳурматли учрашув қатнашчилари!

Шанхай ҳамкорлик ташкилотининг бу галги саммитининг аҳамияти, энг аввало, ниҳоятда муҳим ҳужжатлар — Хартия, Декларация ва Минтақавий аксилтеррор тузилма тўғрисида битим имзоланиши билан белгиланади.

ШҲТнинг асосий ҳужжатлари бўлган Хартия ва сиёсий Декларация ташкилотнинг ўзи ва айни пайтда унинг асосида тузилиши мумкин бўлган барча тузилмаларнинг кенг кўламли фаолияти учун зарур асос яратади ҳамда халқаро ва давлатлараро алоқалар тизимида унинг ўрнини белгилайди.

Ўзбекистон ШҲТнинг Хартия ва Декларацияда эълон қилинган ҳамда минтақада хавфсизлик, тинчлик ва барқарорликни таъминлашга, халқаро террорчилик, айирмачилик ва экстремизмнинг барча кўринишларига, шунингдек, наркотрафик ва оммавий қирғин қуроли тарқалишига қарши кўрашга йўналтирилган асосий мақсадли вазифаларини; гуманитар соҳада, ижтимоий ва маданий тараққиёт соҳаларидаги кўп томонлама, ўзаро фойдали иқтисодий ҳамкорлик ривожлантирилишини қўллаб-қувватлайди.

Ҳеч шубҳасиз, ШҲТнинг ушбу ва бошқа муҳим мақсад ва тамойилларининг амалга оширилиши барча иштирокчи давлатлар манфаатларига бирдек мос келади.

Шу муносабат билан юқорида қайд этилган ҳужжатларда ШҲТнинг блок ёки ёпиқ тузилма бирлашма эмаслиги, унинг очиқлиги, дунёнинг барча давлатлари ва халқаро ташкилотлар билан БМТ Низоми, халқаро ҳуқуқ меъёрларига мувофиқ кенг кўламли амалий мулоқот ва ҳамкорликка тайёрлиги кўзда тутилиши ниҳоятда муҳим аҳамият касб этади.

Биз ҳар бир давлатнинг ва бутун Марказий Осиё минтақасининг суверен, олға интилувчи ва барқарор тараққиётини қўллаб-қувватловчи барча давлатлар билан ҳамкорлик қилишдан манфаатдор бўлишимиз, бу ерда геосиёсий рақобат ва зиддиятлар пайдо бўлишига йўл қўймаслигимиз керак.

Биз шу йилнинг май ойида Россия ва АҚШ президентлари томонидан имзоланган Қўшма декларациядаги ушбу баёнотни қўллаб-қувватлаймиз: "Биз Марказий Осиёда ва Жанубий Кавказда барқарорликни, минтақадаги ҳар бир давлат суверенитети ва ҳудудий яхлитлигини қўллаб-қувватлашдан манфаатдор эканлигимизни тан оламиз. Россия билан АҚШ "буюк давлатлар" рақобатининг ўзини оқламаган моделидан воз кечади, зеро бу йўл мазкур минтақадаги вазиятни янада кескинлаштириб юбориши мумкин".

Ҳурматли саммит иштирокчилари!

Имкониятдан фойдаланиб, минтақамиз хавфсизлигига бевосита дахлдор бўлган, жумладан, афғон можароси масалалари хусусидаги айрим фикр-мулоҳазаларимни баён этмоқчиман.

Ўзбекистонда доим, каттами-кичикми, қўшнини танлаб бўлмайди, деган нақлга амал қилиб келинган. Демак, улар билан

(Давоми 2-бетда)

ШҲТ: ҲАМКОРЛИКНИНГ БОЙ ТАЖРИБАСИ ВА АЛОҚАЛАР РИВОЖИНИ РАҒБАТЛАНТИРИШНИНГ КАТТА ИМКОНИЯТЛАРИ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримов Шанхай ҳамкорлик ташкилотининг 6-7 июнь кунлари Санкт-Петербург шаҳрида ўтказилган саммитида иштирок этди.

Шанхай ҳамкорлик ташкилотига ўтган йилнинг июнь ойида асос солинган эди. Ўшангача "Шанхай бешлиги" деб аталиб келган бу тузилма Ўзбекистон қўшилиши билан ўз фаолияти қамровини кенгайтирди.

Санкт-Петербург саммитида ўтган бир йил давомида амалга оширилган ишлар сарҳисоб қилиниб, келгусига мўлжалланган режалар муҳокама этилди. Табиийки, бу саммитнинг асосий натижаси ташкилотнинг Хартияси қабул қилинганидир. У халқаро муносабатлар тизимида пайдо бўлган янги ташкилотнинг ҳуқуқий пойдевори бўлди. Хартия имзоланиши билан ШҲТ доирасидаги ташкилий-ҳуқуқий ишлар ниҳоясига етказилди, деб ҳисоблаш мумкин.

Шанхай ҳамкорлик ташкилотини тузишдан кўзланган асосий мақсад қўшни мамлакатлар ўртасида ўзаро ишончни мустаҳкамлаш, уларнинг хавфсизлик соҳасида, иқтисодий ва ижтимоий жабҳалардаги ҳамкорлиги равнақ топиши учун қулай шарт-шароит яратиш ва янги имкониятлар очишдан иборат эди. Бугунги кунда ШҲТ доирасидаги кўп томонлама ҳамкорликнинг асосий йўналишларини хавфсизлик ва иқтисодий масалалар ташкил этмоқда. Зотан, бу икки омил бир-бири билан узвий боғлиқдир.

Хавфсизлик масаласини оладиган бўлсак, ҳозирги кунда халқаро ҳамжамият бу борада янгича ёндашувга эҳтиёж сезаётганини илғаш қийин эмас. Бу ёндашув ўзаро ишонч ва манфаатдорлик, тенглик ва ҳамжиҳатлик тамойилларига таянши керак. ШҲТ ана шундай ёндашув, хавфсизликнинг янги концепциясини юзага келтирди, десак, янглишмаймиз. Ўтган йили 15 июнь куни имзоланган Террорчилик, айирмачилик ва экстремизмга қарши кураш тўғрисидаги Шанхай конвенцияси қаторига Минтақавий аксилтеррор тузилмаси тўғрисидаги битим қўшилди.

ШҲТ тузилганига энди бир йил бўлди. Лекин бу вақт давомида дунё кескин ўзгаришларни бошдан кечирди. Хавфсизликни таъминлаш учун барча давлатлар ҳамжиҳат ҳаракат қилиши лозимлиги бутун дунёда эътироф этилди. Лекин бу ҳамкорлик фақат ҳарбийлашган соҳалар бўйича қарор топтирилса, кутилган натижага эришиш қийин. Дунё мамлакатлари кенг кўламли ҳамкорликни вужудга келтириши керак. Қуроллароғ ва наркотик моддалар контрабандаси, уюшган жиноятчилик, айирмачилик каби очиқ иллатлар қаторида, қашшоқлик, ишсизлик, саводсизлик, ирқий, этник ва диний камситишлар сингари баъзида кўзга яққол ташланмайдиган муаммоларга қарши ҳам курашиш лозим. Зеро, хавфсизликка таҳдид айни шундай муаммолар негизида пайдо бўлади. Ишсиз, қашшоқ, дунёқараши ва тафаккур доираси тор бўлган одамларгина ўзгаларнинг макрига осон илинади. Бир сўз билан айтганда, Ислом Каримов кўп бор таъкидлаганидек, террор ва зўравонликнинг ижтимоий асосларини бартараф қилмоқ лозим.

Шанхай ҳамкорлик ташкилоти мамлакатлари хавфсизлик борасидаги ҳамкорлигини мана шу омиллардан келиб чиққан ҳолда ривожлантиришга келишиб олди. Саммит қатнашчилари террор ва зўравонликнинг олдини олиш учун қинғир йўллар билан топилган пулларнинг қонунийлаштирилишига қарши курашиш заруллигини ҳам таъкидлади.

Саммитда Ўзбекистон Президенти Ислом Каримов хавфсизлик масаласига тўхталар экан, бу борада Афғонистондаги вазият муҳим ўрин тутишини таъкидлади. У ердаги аксилтеррор операциясининг ҳарбий босқичи ниҳоясига етган бўлса-да, ҳали вазият қай йўсинда ривожланишини башорат қилиш қийин. Мамлакатда кўп миқдорда қурол-яроғ тўпланиб қолган. У яна бошқа одамлар қўлига тушмаслиги учун ижтимоий-иқтисодий вазиятни ўнглаш лозим. Бунинг учун кенг кўламли хорижий ёрдам керак бўлади. Иқтисодиётни тубдан ўзгартириш, одамларни иш билан таъминлаш ва шу орқали тинч ҳаётга қайтариш учун ҳали анча вақт ва кўп меҳнат талаб қилинади. Марказий Осиёнинг хавфсизлиги бевосита Афғонистондаги вазиятга боғлиқ бўлгани сабабли, ШҲТ аъзолари бу мамлакатдаги сиёсий-иқтисодий тикланиш жараёнларига кўрсатилаётган ёрдамни янада кўпайтириш борасида бир-бири билан ҳамкорликни кенгайтиришга келишиб олди.

Ислом Каримов ШҲТ фаолиятида аъзо мамлакатлар ўртасидаги иқтисодий ҳамкорлик ривожини ҳар томонлама рағбатлантириш асосий вазифалардан бири бўлиши лозимлигини таъкидлади. Савдо ривожланиши ва сармоя фаол ҳаракатда бўлиши учун қулай шарт-шароит яратиш, кўп томонлама савдо-иқтисодий ҳамкорликнинг узоқ муддатли дастурини ишлаб чиқиш борасидаги мулоқотларни кўпайтириш зарурлигини қайд этди. Саммит қатнашчилари транспорт коммуникациялари ва энергетика иншоотларини барпо этиш, сувдан фойдаланиш, энергия захираларини қазиб олиш ва ташишга оид масалаларни муҳокама қилар экан, ушбу соҳалар бўйича истиқболли лойиҳаларни ҳамкорликда

(Давоми 2-бетда)

«Kamolot» hududi

БАҲОР УЧ ОЙ ЭМАС...

"Бойсун баҳори" очиқ фольклор фестивали ўтганига кўп бўлгани йўқ. Аммо, ундан олинган таассурот узоқ-узоқларгача ёшларимиз қалбидан ўчмайди. Боиси, бундай улкан тадбирларда ёшларимизнинг чинакам таянчи ва суянчига айланаётган "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракатининг иштироки алоҳида эътиборга эга.

Юртимизда баҳор Бойсундан бошланади, десак янглишмаган бўламиз. Бойсун тоғлари ва қир-адирлари табиатни "фош" этиб, тезда кўзга тушади. Қаҳратон қишда оппоқ бўлиб қор қоплаган тоғларни, баҳорда кўм-кўк бўлиб кўрпачадек тўшалган қир-адирларни кўриб туйғунгиз тошади. Бу Бойсуннинг ўзгача оҳанграбо табиати далолати бўлса, ажабмас.

Ана шу жиҳатларни қаламга олмоққа уринарканмиз, беихтиёр яқиндагина бўлиб ўтган Халқаро "Бойсун баҳори" очиқ фольклор фестивали тевирагида айтилган фикр мулоҳазаларни четлаб ўтолмаймиз. Сабаби, аввало Бойсунда бу даражадаги улкан миқёсдаги тадбирлар илгари ўтказилмагани бўлса, иккинчи бир жиҳатдан уч кун давом этган фестиваль кунлари бойсунликларнинг фаол иштироки, ўз маданияти, урф-одатлари билан нафақат хорижлик меҳмонларни, балки Бойсун билан илк бор танишаётган ҳамюртларимизнинг ҳам эътиборини қозонди.

Шу ўринда таъкидлаш керакки, фестиваль режаси жуда қойилмақом тузилган эди. Айниқса, фестиваль очилишидан бир кун олдин меҳмонларнинг Бойсуннинг қадимий Сайроб, Дарбанд, Кофурун, Даштиғоз каби ўнга яқин қишлоқларидаги аҳоли билан учрашуви, уларнинг яшаш шароити, кийиниш маданияти билан танишуви алоҳида диққатга сазовор бўлди. Бойсунлик Ўзбекистон Халқ бахшиси Шоберди Болтаевнинг ўйноқи термалари, достонлардан айтган парчалари, "Шалола", "Бойсун", "Қуралай" халқ ансамбларининг чиқишлари фестиваль иштирокчиларидаяхши тасаввур уйғотди, десак хато бўлмайди.

Фестивалнинг очилиш маросими ҳам зўр шоду хуррамлик билан ўтди. Шу куни туманнинг чекка қишлоқларидан ҳам ёшу қарилар фестивални томоша қилишга ошиқди. "Алпомиш" майдони ҳамда боғи ва туман "Маданият" уйида бўлиб ўтган турли номинациялар ғолиблиги бир нафас бўлсада томошабинлар эътиборидан четда қолган йўқ.

Айтиш мумкинки, фестивалнинг энг қизиқарли босқичи фольклор ансамбллари ўртасида бўлиб ўтди. Ундан ортиқ ансамбллар иштирок этган бу саҳна намойишида ҳар бир иштирокчи ўзининг такрорланмас репертуари билан қатнашди. Якуний натижаларга кўра ғолибликни Халқаро ЮНЕСКО ташкилоти эътироф этган, "Бойсун", "Шалола" ашула ва рақс халқ ансамбли қўлга киритиб, Республика "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракати Марказий Кенгашининг қимматбаҳо совғасини қўлга киритди.

Совға ёки ғолиблик, албатта, муҳими бу эмас. Иштирокчиларнинг ҳар бири муносиб тақдирланган бўлса-да, назаримда, энг катта ютуқ — бу халқнинг эътирофи, томошабиннинг олқиши.

Шундай экан, юртимизда бундай кенг миқёсдаги тадбирларнинг анъанавий ўтказилиши халқимизнинг бахти, келажагимиз бўлган ёшларга дунёга чиқишга бўлган яна бир имкониятдир.

Шавкат АЛЛАНАЗАРОВ

БОЛАЛАР СПАРТАКИАДАСИ

"Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракати Тошкент тумани Кенгаши 31-мактабда ёшлар ўртасида спартакиада ўтказди. Мусобақа спортнинг шахмат-шашка ва теннис турлари бўйича олиб борилди.

Тадбирга тумандаги мактаб ўқувчилари, маҳаллалардан фахрийлар таклиф этилди. Турнирда қатнашган 31-мактаб жамоаси 1-ўринни, 9-мактаб жамоаси 2-ўринни ва 35-мактаб жамоаси 3-ўринни эгаллади.

Раъно РАҲМЕДОВА

УЧРАШУВ

Наманган шаҳрида "Соғлом авлод учун" халқаро хайрия жамғармаси кубоги учун ўсмирлар ва қизлар ўртасида бўлиб ўтган миллий ва белбоғли кураш мусобақаларида Қашқадарё вилоят ўрта махсус, касб-ҳунар таълими бошқармасининг терма жамоаси 2-Республика турнирида I ўринни олишга муваффақ бўлган эди. Шу муносабат билан Қарши Политехника касб-ҳунар коллежида чемпионлар билан учрашув ўтказилди.

Зоҳида ПАРМОНОВА

БУГУННИНГ ЁШЛАРИ

Унинг орзулари рўёбга чиқди. У ўз иқтидорини тўла намоён эта олганидан кўнгли тўлди. Бу хушхабар дастлаб у таҳсил олаётган Республика Молия лицейида тарқалди. Тенгдошларининг унга ҳаваси келди. Эндигина 16 ёшга тўлган, Молия лицейининг 10-синф ўқувчиси Шомурод Шотўлқинов "Акселс" фондининг бу йилги синов имтиҳонларидан муваффақиятли ўтиб, 2002-2003 ўқув йилида АҚШда таҳсил олиш учун йўлланмани қўлга киритди.

ЙИГИТНИНГ ОМАДИ

— Билими бор ёшларда имтиҳонлардан ўтиш унчалик қийин бўлмаса керак-а?

— Албатта. Мен шу пайтгача яна бир нарсага амин бўлдимки, ўқиган, изланган одам ҳаётда ҳеч ҳам қийналмас экан. Орзуларимнинг рўёбга чиқишида устозларимнинг талабчанлиги ҳам сабаб бўлса керак, деб ўйлайман. Хорижда ўқиш истагида "Акселс"га имтиҳон топширар эканман, хаёлимда фақат ғолиб бўлишим керак, деган ўй кезарди. Ахир, билимимга ишончим бор эдида.

— Умуман, келажакда қайси соҳада фаолият юритмоқчисиз?

— Аудитор бўлмоқчиман. Бу менинг болаликдаги ҳавасларимдан бири. Бироқ қайси соҳада фаолият кўрсатмай, мақсадим ягона — мени камолотга етказган она юрт ривожига ўз ҳиссамни қўшиш ва ўз билимимни келажак авлодга етказишдир.

— Бугуннинг ёшларига кўп таъриф берамиз. Зукко, зеҳнли, шижоатли... Ўзингизни қандай ёшлар тоифасидан эканлигингизни ҳеч ўйлаб кўрганмисиз?

— Тўғрисини айтсам йўқ. Бироқ улар каби мен ҳам шижоатли, ўз амалий ишимнинг муваффақияти учун ҳамма нарсага тайёр тураман. Кенгроқ, аниқ фикрлашга ҳаракат қиламан.

— Яқинларингиз, атрофдагилар учун сиз қандай хислатларга эгасиз?

— Ота-онам ҳар доим мени ўжарроқсан, деб қойишади. Менимча, бу хислат ёмон бўлмаса керак. Ахир, айтилган ишни ўз вақтида қилиш ёки бировдан талаб қилиш ўжарлик бўладиган бўлса, бу "камчилик"дан қутулишим қийин. Атрофдагилар эса мени, "жиддий йигит" сифатида қабул қилишади. Бу тўғри. Чунки кўп гапиришдан, кўп ўйлашни афзал кўраман.

— Бўш вақтингизни қандай ўтказасиз?

— Вақтимнинг ҳар бир дақиқасини бекорга кетишини хоҳламайман. Кўпроқ математика, инглиз тили, компьютерда ишлашни янада чуқурроқ ўзлаштиришга ҳаракат қиламан. Тинимсиз дарс машғулотларидан сўнг балиқларимга қараман. Акваниумга тикилиб туриб, бутун чарчоқларимни унутаман. Бунинг ўзгача завқи бор-да.

— Иқтисодчи бўлиш учун тил билиш шартми?

— Менимча, шарт ва зарур. Ахир, иқтисод борасида дунё мамлакатларида кўп изланишлар олиб борилмоқда, улардан бехабар қолсак дунёдан четлашиб қолмаймизми? Иқтисодиётимиз ривожланмаса, фан-техникада ютуқларга эришолмасак, спорт майдонида ўз ўрнимиз йўқолса ўша топда бизни, мамлакатимизни ҳеч қайси давлат тан олмайди. Шундай экан, қайси соҳани танламайлик, нафақат тил ўрганишимиз, балки дунёвий, диний илмлардан хабардор бўлишимиз керак. Зеро, халқимизда "Бешикдан қабргача илм изла" деган ҳикмат бежизга айтилмаганини бугун мен янада чуқурроқ англаяпман.

—Эшитишимча, спортни жуда яхши кўрар экансиз...

— Айниқса, футболга жуда қизиқаман. Бундан ташқари дўстларим билан гоҳ-гоҳида стол тенниси ҳам ўйнаб тураман.

Саволларимга дадил, аниқ жавоб қайтарган Шомурод билан хайрлашар эканман, унинг келгусидаги ўқишларига муваффақиятлар тилайман. У энди АҚШда таҳсил олади. Ўзбек ёшларининг бир иқтидорли вакили сифатида мамлакатимиз равнақига ҳисса қўшишига, унинг шаънини муносиб ҳимоя қилишига ишонч билдириб қоламиз.

Зиёда АШУРОВА,
«Turkiston» мухбири

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ИСЛОМ КАРИМОВНИНГ ШАНХАЙ ҲАМКОРЛИК ТАШКИЛОТИ ДАВЛАТЛАРИ РАҲБАРЛАРИНИНГ САММИТИДА СЎЗЛАГАН НУТҚИ

(Давоми, боши 1-бетда)

дўстона, иноқ, баҳамжиҳат ва тотув яшаш, уларнинг миллий қадриятлари ҳамда манфаатларини ҳурмат қилиш лозим. Бизнинг Афғонистонга нисбатан асосий ёндашувимиз ҳам ана шундай.

Тан олиш керакки, аксилтеррор ҳаракатларнинг асосий ҳарбий босқичи якунланиб, Афғонистонда террорчилик инфратузилмаси амалда яксон этилганига қарамай, бу ерда вазият қай йўсинда ривожланишини башорат қилиш мушкул. Ҳарбий-сиёсий кучларнинг қайта гуруҳланиши, террорчиларнинг вақтинча яшириниб олган тўдаларининг фаоллашуви ва маълум бир кучлар томонидан Афғонистон ичидаги турли гуруҳлар ўртасида кенг кўламли уруш ҳаракатлари келтириб чиқарилиши эҳтимолини инкор этиб бўлмайди.

Бунинг устига, Афғонистонда уруш йиллари давомида тўпланиб қолган катта миқдордаги ҳарбий техника, қурол-аслаҳа, мина ва жанговар ўқлар сақланиб турибди. Ушбу вайрон келтирувчи кучни йўқ қилиш ёки сотиб олиш йўли билан бартараф этиш халқаро ҳамжамият олдида турган кечиктириб бўлмайдиган вазифалардан биридир. Биз аминмизки, қуролсизлантириш — Афғонистондаги аҳволни барқарорлаштиришнинг энг муҳим шартидир.

Афғонистонда наркотрафик кўлами тобора кенгайиб бораётгани алоҳида хавф туғдирмоқда. Афсуски, кўп бора баёнотлар берилганига қарамай, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ва бошқа халқаро ташкилотлар доирасида бу офатга қарши курашдан манфаатдор бўлган мамлакатларнинг саъй-ҳаракатлари ва имкониятларини бирлаштира оладиган мувофиқлаштирувчи режалар ишлаб чиқишга уринишлар ҳали кузатилмаяпти.

Бу балога қарши фақат жазо ва маъмурий чораларни кучайтириш, гиёҳванд моддалар етиштириладиган худуд атрофида "хавфсизлик минтақаси" деб аталувчи зоналар ташкил этиш орқалигина эмас, балки, биринчи навбатда, Афғонистон иқтисодиётида туб тузилмавий ўзгаришларни амалга ошириш, аҳолини бунёдкор меҳнат билан шуғулланишини таъминлаш воситасида курашиш керак.

Бугунги кунда Афғонистон жиддий қарорлар қабул қилиш арафасида турибди. Ушбу қарорлар яқинда бўлиб ўтадиган Лойя Жирғада ишлаб чиқилади ва кенг кўламли вакиллик ҳукумати шакллантирилади. Мамлакатнинг келажакда қайси йўлдан бориши ва унда қандай ижтимоий-сиёсий тизим ва давлат тузуми ўрнатилиши Лойя Жирғанинг нечоғлик муваффақиятли ўтишига боғлиқ. Бизнинг минтақамиздаги тинчлик, хавфсизлик ва барқарорлик ҳам кўп жиҳатдан мана шунга боғлиқ бўлади.

Ҳурматли давлат раҳбарлари!

Марказий Осиёдаги минтақавий хавфсизлик билан боғлиқ бўлган муаммолар мажмуини кўриб чиқар эканмиз, биз ҳамкорлигимизнинг иқтисодий жиҳатларини ҳам унутмаслигимиз керак. Чунки мамлакатларимизнинг тинчлик, барқарорлик, фаровонлик ва осойишталик сари одимлаши кўпқиррали иқтисодий ҳамкорлик, иқтисодий тараққиёт эвазига таъминланиши мумкин.

Марказий Осиё давлатларининг ниҳоятда бой заҳиралари, илмий-интеллектуал салоҳиятининг Россия ва Хитой салоҳияти ҳамда иқтисодий ва технологик имкониятлари билан қўшилиши, назаримизда, муҳим инфратузилмавий лойиҳаларни самарали амалга ошириш, савдо-сотиқ, инвестиция ва бошқа соҳалардаги ШҲТ нинг барча иштирокчилари манфаатларини кўзловчи ҳамкорлик янада ривожланишига хизмат қилади.

Ҳамкорлигимизга оид биринчи навбатдаги муаммолар қаторида маъданли-хомашё заҳираларидан оқилона фойдаланиш, энергетиканинг мутаносиб инфратузилмасини яратиш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш каби бошқа кўплаб масалалар борки, ҳар бир мамлакатнинг, умуман олганда, бутун минтақанинг барқарор ва жадал тараққиёти улар ечимига боғлиқдир.

ШҲТнинг ушбу барча мураккаб вазифаларни амалга оширишдаги ўрни ҳақида сўз юритадиган бўлсак, уни ўз иштирокчиларининг ҳолати ва имкониятларига мос, мумкин қадар очиқ, омилкор ва самарали ташкилотга айлантириш ниҳоятда муҳимдир. Саъй-ҳаракатларни совурмай, аксинча ҳамкорликнинг "Шанхай жараёни" қатнашчилари манфаатларига бир хилда мос бўлган асосий масалаларига сафарбар этиш зарур.

ШҲТ тузилмаларини институциявий ва ташкилий жиҳатдан шакллантириш жараёнларини тезлаштириш хусусида, жумладан, Котибият ишини ташкил этиш ва аксилтеррор гуруҳи фаолиятини жадаллаштириш борасида билдирилган айрим таклифларга келсак, ўйлайманки, бу масалалар белгиланган тартибда, барча зарур ҳуқуқий меъёрларга изчил риоя қилинган ҳолда ҳал этилиши лозим. Бу масалалар муҳокамасини тегишли ваколатга эга бўлган миллий мувофиқлаштирувчиларга топшириш даркор.

Ушбу имкониятдан фойдаланиб, бугунги учрашувнинг жуда муҳим бир жиҳати — муносабатлардаги ҳурматэътибор, ўзаро ишонч ва ҳамфикрлик ҳамда барча томонлар нуқтаи назари инобатга олинганини алоҳида таъкидлашни истардим. Бундай ёндашув, шубҳасиз, мамлакатларимиз ва халқларимиз ўртасидаги ҳамкорликни янада ривожлантириш ва мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Эътиборингиз учун ташаккур.

ШҲТ: ҲАМКОРЛИКНИНГ БОЙ ТАЖРИБАСИ ВА АЛОҚАЛАР РИВОЖИНИ РАҒБАТЛАНТИРИШНИНГ КАТТА ИМКОНИЯТЛАРИ

(Давоми, боши 1-бетда)

белгилаш, ишлаб чиқиш ва амалга ошириш ҳар томонлама фойдали бўлишини таъкидлади.

Учрашувлар давомида қайд этилганидек, хавфсизлик ва савдо-иқтисодий масалалардаги ҳамкорлик бир-бири билан узвий боғлиқдир. Хавфсизлик борасидаги алоқалар иқтисодий ҳамкорликни рағбатлантирса, иқтисодий ҳамкорлик хавфсизлик борасидаги алоқаларни рағбатлантиради.

Ислом Каримов таъкидлаганидек, мамлакатлар ўртасидаги муносабатларнинг асосини савдо-иқтисодий алоқалар ташкил этади. Товарлар, хизматлар ҳамда сармоя оқими фаол бўлган мамлакатлар ўртасида ўзаро ишонч мустаҳкамланади. Бу эса, муайян минтақада барқарор хавфсизлик таъминланишига олиб келади. Иккинчи томондан, хавфсизлик борасида яқин ҳамкорлик қилувчи мамлакатлар бир-бирининг ҳудудидаги вазиятни яхши билади ва иқтисодий соҳада ҳам, аввало, бир-бири билан шериклик қилишни афзал топади. Бинобарин, бугун ШҲТ минтақасини, стратегик нуқтаи назардан, улкан хавфсизлик зонаси ва иқтисодий интеграция ривожи учун катта имкониятлар мавжуд бўлган макон, деб аташ мумкин.

Яна бир муҳим жиҳатни қайд этиб ўтиш даркор. Санкт-Петербург саммитида давлат раҳбарларининг Декларациясига ҳам имзо чекилди. Унда ШҲТ ҳарбий блок ёки ёпиқ алянс эмаслиги, бошқа мамлакат ё давлатлар гуруҳига қарши қўйилмагани алоҳида банд билан қайд этилди. ШҲТ бошқа ташкилотлар ва мамлакатлар билан ўзаро манфаатдорлик асосида, халқаро ҳуқуқ меъёрларига мос ҳолда, кенг кўламли ҳамкорлик қилиши, янги аъзолар ҳисобига сафини кенгайтириши мумкин. Яъни, у халқаро муносабатлар тизимида демократия, ўзаро ҳурмат ва ишонч тамойилларига асосланган ҳолда иш юритади. Шу боис ҳозирданоқ айрим давлатлар ташкилотнинг мақсад ва вазифаларини маъқул топиб, унга қўшилиш истагини билдирмоқда.

Шунингдек, Декларацияда Шанхай ҳамкорлик ташкилоти аъзолари Ўзбекистоннинг Марказий Осиёни ядро қуролидан холи зона, деб эълон қилиш тўғрисидаги ташаббусини қўллаб-қувватлаши ҳам алоҳида қайд этилган. Бу эса мамлакатимиз раҳбарияти юритаётган тинчликпарвар сиёсатнинг яна бир халқаро эътирофи бўлди.

Шанхай ҳамкорлик ташкилотининг афзалликлари бу билан тугамайди. У чегарадош ҳудудларда вазиятни барқарорлаштириш, савдо-иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш борасида бой тажрибага эга. Глобаллашув жараёни фаоллашиб бораётган бугунги кунда эса, кенг кўламли халқаро ҳамкорликсиз ижтимоий-иқтисодий тараққиётга эришиш мушкул. Давлатлар қўшни танламайди. Демак, ижтимоий-иқтисодий ҳамкорликда иш юритиш лозим. Шанхай ҳамкорлик ташкилоти ана шу инкор этиб бўлмас ҳақиқатни рўёбга чиқармоқда.

Санкт-Петербургда Президент Ислом Каримов Россия, Хитой ва Тожикистон раҳбарлари билан учрашди.

Маълумки, Россия Ўзбекистоннинг йирик иқтисодий шериги саналади. Мамлакатимиз ташқи савдосида Россиянинг улуши 23 фоизни ташкил қилади. Владимир Путин билан бўлган учрашувда икки томонлама савдо ҳажми 1 миллиард АҚШ долларига етаётгани мамнуният билан таъкидланди, савдо-иқтисодий алоқаларни янада ривожлантириш масалалари муҳокама қилинди.

ХХР раиси Цзян Цзэмин билан ўтказилган мулоқотнинг асосий мавзуини ҳам савдо-иқтисодий ҳамкорликка оид масалалар ташкил этди. Томонлар транспорт коммуникацияларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратди.

Ислом Каримовнинг Имомали Раҳмонов билан музокараларида Марказий Осиё минтақасидаги хавфсизлик, Афғонистондаги вазият ҳамда Ўзбекистон-Тожикистон муносабатларига доир масалалар муҳокама қилинди.

Шундай қилиб, Санкт-Петербургда Шанхай ҳамкорлик ташкилотининг ҳуқуқий асоси дунё юзини кўрди. Таъкидламоқ жоизки, учрашувларда Ислом Каримов "Шанхай жараёни", Цзян Цзэмин эса "Шанхай бурчи" деган янги атамаларни тилга олди. Бу аъзо мамлакатлар ташкилотни ҳар томонлама ривожлантиришга қатъий бел боғлаганидан дарак беради.

Анвар БОБОЕВ,
ЎзА махсус мухбири,
Тошкент — Санкт-Петербург — Тошкент

ШУ КУННИНГ МАВЗУСИ

ҚИШЛОҚ СПОРТИ: МАВЖУД АҲВОЛ ТАҲЛИЛИ

Ватанни севиш, унга муносиб фарзанд бўлишга интилиб яшаш ҳар бир инсоннинг азалий орзусидир. Ахир, она-Ватан шуҳратини оламга ёйган машҳур кишиларнинг кўпчилиги ҳамиша фахр-ифтихор туйғулари билан жўш уриб умр кечиради-ку! Бунга талай мисоллар келтириш мумкин.

Майкл Жордан деганда Америка, Пеле деганда Бразилия, Кафельников деганда Россия, Шумахер деганда Германия ёдга тушади. Хорижликлар эса Ирода Тўлаганова, Руфат Рискиев, Нурхон Нафасов ва бошқа ўнлаб спортчиларнинг номи тилга олиниши биланоқ беихтиёр жонажон Ўзбекистонни кўз олдига келтирадилар.

Спорт Ватанимизда, айниқса мустақиллик йилларида бениҳоя гуллаб-яшнади. Юзлаб чет элларга донғи кетган спортчилар истиқлол йилларининг меваларидир.

Афсуски, айрим туманларда Ватанимиз шуҳратини дунё миқёсига олиб чиқадиган истеъдодли, бақувват, соғлом шахсларни камол топтириш ҳамон эътибордан четда қолаётир.

Сурхондарёда полвонлар кўп. Аммо спортнинг бошқа турлари нега ривожланмаётир? Нима учун жаҳон ва Осиё мусобақаларида иштирок этиш у ёқда турсин, мамлакатимиздаги кўплаб беллашувларда вилоят вакилларининг кўли баланд келмаётир? Эҳтимол, вилоятда талантли, чиниққан спортчилар камдир?

Йўқ, гап бошқа тарафда. Энг ташвишлиси шундаки, ёшларнинг бошини қовуштириб, уларнинг маҳоратини оширишга масъул бўлганларнинг фаолияти самарали бўлмаётир. Бунга сабаб ҳамон спортга ўгай кўз билан қаралаётганида.

Нима учун вилоятда зўр баскетболчи, таэквандочи, оғир атлетикачи, дзюдочи, мерганлар, теннисчилар жуда кам? Бунинг сабаби шундаки, вилоят туманларидаги жисмоний тарбия ва спорт тизимининг ўзи кўмакка муҳтож. Уларнинг баъзилари кадрлар етишмаётганлигидан, транспорт ёки маблағ йўқлигидан нолийдилар.

Хўш, муаммолар ечими қаерда? Буни вилоятнинг биргина Музрабод туманидаги аҳвол мисолида таҳлил қилсак, масала бирмунча ойдинлашади.

СТАДИОНМИ ЁКИ ЭКИНЗОР?

Эҳтимол, бу саволга хўжалик раҳбари Алижон Маматов жавоб қайтарар

"Қўнғирот" деҳқон-фермер хўжаликлари уюшмасида номигагина бор бўлган "стадион"ни кўздан кечириш, у ердаги ёшлар билан гурунглашишни ният қилдик. Фақат иккита ёғочни кўмиб қўйибди. Унда на дарвоза тўри, на майдон четини белгилаб турадиган чизиқлар бор. Атрофи қалин буғдойзор майдонни ёшлар йўқдан кўра бор ўйингоҳ деб ҳисоблайдилар. Аслида бу жойни стадион дейишга тил бормайди. Ҳатто футбол майдончаси деб аташ ҳам нотўғри. Чунки томошабинлар учун ўтиргичлар йўқ. Бу ерда футбол ёки бошқа спорт тури бўйича мусобақада қатнашаётган ёшлар учун на ечиниш-кийиниш хонаси, на ювиниш жойи бор. Кўп ҳолларда аҳолининг қўй-эчкилари ўтлаб юрадиган, атрофи очиқ майдончани стадион деб аташ инсофданми?

Бу майдончада онда-сондагина ҳаваскор футболчиларни учратиш мумкин. Хўш, волейболчилар, баскетболчилар, қўл тўпи ёки сузиш ишқибозлари қаёқда? Гимнастика, узунликка ва баландликка сакрашга қизиқадиганлар-чи?

— Э, хаёлпараст одам экансиз-ку, — деди ёшлардан бири бу саволга ажабланиб.— Бизда спортнинг шундай соҳалари борлигини ҳатто баъзилар билмайди ҳам. Илгари хўжаликда спорт йўриқчиси штати бор эди. Энди эса... Ҳеч ким бу соҳага масъул эмас.

— Эртадан кейин "Университет" жамоаси билан мусобақалашамиз,-дейди хўжаликда ўз ташаббуси билан футболчиларни тўплаб, "Қўнғирот" жамоасини ташкил этган мураббий Ҳақназар Бадалмуродов. — Афсуски, майдончамиз талабга жавоб бермаслиги сабабли учрашувни "Халқобод" стадионида ўтказамиз.

— Манови хўжалигимиз футбол майдончасини одамлар ўзбошимчалик билан эгаллаб олишиб, ғалла экишган, тўп экинга сакраб тушиб кетса, ғаллазор эгаларидан балога қолаяпмиз,-дейди мураббий зорланиб.

— Қандай муаммолар сизни ташвишга соляпти?

— Тўпни ўз пулимизга сотиб олдик. Кўп мусобақаларга ўз маблағимиз ҳисобидан бориб келаяпмиз. На мураббий, на бирор футболчи ютса, моддий ёки маънавий жиҳатдан манфаатдор эмас. Спорт кийимлари-ку футболчиларимизнинг тушига ҳам кирмайди. Энг ачинарлиси, хўжалигимизда бирорта спорт тури ривожланмаяпти. Бунинг сабаби, ёшларга мураббий йўқлигидан, деб ҳисоблайман.

Нега спорт турлари бўйича беллашувлар ташкил этилмаяпти? Нега, бу ерда "Камолот" ташаббускор эмас?

БЕКОРЧИ ЁШЛАР ОЗ ЭМАС

Аммо нега айрим тадбирлар қоғозда қолиб кетаётир?

"Навбаҳор", Алишер Навоий, Р. Бўриев номли хўжаликларда кишиларнинг етмиш-саксон фоизи, асосан қишлоқ хўжалик соҳасида банд. Қолгани-чи? Юзлаб ёшлар мактабни битирган бўлишса-да, тузукроқ иш тополмаяптилар. Сабаби аниқ. Юқоридаги хўжаликларда иш ўринлари ташкил этишга эътибор йўқ. Айрим ёшлар зерикканидан безорилик кўчасига кириб кетишаётир. Хўш, бу ёшларни нега маданий-маърифий, спорт тадбирларига жалб этишга ҳеч ким қизиқмаяпти? "Камолот", "Маҳалла" каби жамоат ташкилотларининг шу жойдаги раҳбарлари эса сукут сақлашни афзал кўришаётир.

— Нима учун хўжаликларда, корхоналарда, ташкилотларда ёшлар ўртасида спортнинг кўпчилик турлари бўйича мусобақалар ниҳоятда кам ўтказилаётир?

Бу саволимизга "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракатининг туман Кенгаши раиси Шуҳрат Азизов қандай жавоб қайтаришни билмай жим қолди.

—Ҳарбий қисмларда волейбол мусобақасини ўтказиш Кенгаш иш режасида белгиланган экан. Бироқ, бу тадбир нега қоғозда қолиб кетди?

—Бунинг иложи бўлмади,— деди Шуҳрат Азизов. Айрим муаммолар кўндаланг бўлиб турганлигини, шуларни ҳал қилмасдан туриб, спортни ривожлантириб бўлмаслигини дангал айтди. — Туманда қишки ва ёзги спорт иншоотлари етарли эмас. Биласизми, қишлоқларда баскетбол, бокс, самбо, шахмат-шашка бўйича иқтидорли ёшлар кўп. Уларнинг бошини қовуштирадиган, шундай мусобақаларга жалб этадиганлар етишмаётир. Энг ёмони, спорт бўйича мураббийларни топиш қийин. Йўриқчилар эса бошқа соҳаларнинг этагини тутиб кетишган.

Бир муаммо мени қийнайди. Нега туманда халқ хўжалиги, техника ёки педагогика олий ўқув юртларига ёшлар кўп боришаётгани ҳолда жисмоний тарбия институтига киришга қизиқувчилар оз? Бунинг боиси шунда-ки, ўқув юртини битириб келганларга иш топилмайди. Яна бир масала. Туманда иқтидорли ёшлар оз эмас. Аммо корхона ва ташкилотлар раҳбарлари спортни деярли унутиб қўйишган.

Туман ёшларининг раҳбари ҳашар йўли билан футбол майдончаларини ташкил этишга ахд қилганликларини айтди. Хўжаликларда бу ташаббус етарли қўллаб-қувватланмаяпти.

Раиснинг зорланиши туман раҳбарларини ташвишга солмаяпти. Нега?

Музрабод жисмоний тарбия ва спорт қўмитаси раиси Абдумурод Тўраназаров ташландиқ бинонинг бир қисми ташкилотга ижарага берилганидан хурсанд бўлиб кетди. Аммо кабинет ташкил этиш учун тузукроқ хона тополмай ҳозиргача хуноб. Турли спорт тўгараклари, секциялар тузишга эса шароит йўқ. Демак, ҳар хил тадбирлар ўтказишга имконият етарли эмас.

—Муаммоларни айтаверсам адо бўлмайди,—деди А. Тўраназаров ичидаги гапларини дастурхон қилиб ёзаркан.—Аввало, бизда бирорта транспорт йўқ, шу сабабли хўжалик ва ташкилотлардаги мусобақаларга спортчиларни жалб қилишга қийналяпмиз. Иккинчидан, ўнлаб жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассислар ишсиз юришибди. Унга сабаб бу соҳага масъул шахс йўқ. "Бешқўтон", Р. Бўриев номли, "Қўнғирот", А. Икромов номли хўжаликлардан ёшлар спортнинг ҳар хил турлари бўйича туман ва вилоят мусобақаларида деярли иштирок этишмайди. Бу хўжаликларда спорт йўриқчилари штати тугатиб юборилган.

Туманда деҳқон ва фермерлар уюшмаси бор. Ўнлаб бақувват фермерлар фаолият кўрсатишяпти. Аммо Ғани Саломовдан бошқа бирор киши спортчиларга ҳомийлик қилиш, кўмак беришни хаёлига ҳам келтирмаётир. Мана кўриб турибсиз, туман марказий ўйингоҳи бор. Унинг атрофи девор билан ўралмаган. Шу боисдан баъзан моллар майдонни ифлос қилиб ташлаяпти. Штат йўқлигидан ўйингоҳга директор ҳам, қоровул ҳам, фаррош ҳам ўзим.

—Нега мусобақаларни тез-тез ўтказиб турмайсизлар?

—Эҳ, ярамни тирнаб нима қиласиз? Бунинг учун маблағ йўқ. Кўл тўпи, футбол, волейбол мусобақалари ўтказиш учун копток, турли спорт анжомлари, махсус спорт кийимлари йўқлигидан қийналиб турибмиз.

Музрабодда эллик беш жойда бильярдхона бор. Улардан бизга бир сўм ҳам маблағ тушмайди. Ҳаммаси туман солиқ инспекцияси ҳисобига ўтказиб юборилаётир. Туманда сузиш ҳавзалари, югуриш майдончалари қачон ташкил этилади? Гапираверсам, гап кўп.

ЭЪТИБОРДАН ЧЕТДА

Спорт-соғломлаштириш муассасаларини қуриш, хўжалик раҳбарларининг бу соҳага масъулиятини ошириш ҳеч кимнинг хаёлига келмаётир.

Туман касаба уюшмалари жисмоний тарбия ва спорт жамияти раиси Йўлдош Пўлатов билан сухбатимиз қисқа бўлди.

—Кабинетингиз қаерда?

—Кинотеатрдан бир хона ажратишган. Ҳали уни кабинет дейишга тилим бормайди. Ҳатто стол-стуллари йўқ. Кабинетни жиҳозлашга маблағ тополмаяпман.

—Хўжаликларда спортнинг аҳволи, касаба уюшмаларининг унга муносабати қандай?

—Айниқса, "Туркистон", Р. Бўриев А. Икромов номли, Алишер Навоий хўжаликларда спорт йўриқчилиги штати йўқ қилингач, бу соҳага эътибор берилмай қолди. Ҳатто бу жойларда турли машғулотлар ўтказиш, спорт секциялари фаолият кўрсатиши учун майдончалар йўқлиги ташвишланарлидир. Ўзингиз ўйлаб кўринг, вилоят, туман ҳокимликлари спортга доир қанча қарорлар қабул қилди? Бироқ унинг ижроси ҳақида ҳеч ким ўйлаб кўрмаяпти. Спортнинг теннис, таэквондо, бокс, кикбоксинг, каратэ турларини ривожлантиришга умуман имконият йўқ.

—Бунинг сабаблари нимада?

—Мутахассислар йўқлигида. Юқоридаги спорт турларига мураббийлар жалб этишга эса ҳеч ким қизиқмаётир.

—Корхона ва ташкилотлардаги спортнинг аҳволи сизни қаноатлантирадими?

—Йўқ. Бир нечта ташкилотларда бу муҳим соҳани эсдан чиқариб юборишган. Айниқса, қурилиш, транспорт ташкилотларида, марказий шифохонада спортга ўгай кўз билан қарашади. Ахир, туманда юзлаб шифокорлар ишлайди. Нима учун уларни спортнинг турли мусобақаларига жалб этиш мумкин эмас? Улар бадантарбия соғлиқ гарови дея кўп гапиришади. Аммо ўзлари жисмоний тарбияга унчалик рўйхушлик беришмайди.

Музрабодда қишлоқ хўжалиги, маданият, соғлиқни сақлаш, давлат муассасалари, қурилиш, алоқа бўйича бир нечта тармоқ касаба уюшмалари кенгашлари бор. Нима сабабдан Музрабоддаги бу ташкилотлар спортнинг ўнлаб турлари бўйича мусобақаларни ниҳоятда кам ташкил этаётир? Туман қишлоқ хўжалиги ходимлари касаба уюшмаси раиси Жўра Ғаффоровга шундай мазмунда савол бердим. У эса:

—Маблағ йўқ. Муовин штатини қисқартиряпмиз. Ҳисобчимиз тўлиқ штатда маош олмайди.

Бу важни оқлаб бўлмайди. Ахир, хўжаликлардаги касаба уюшмаларининг кўпчилиги нега сукут сақлашяпти?

ПАХТАЧИЛИКДА ҚОЛОҚ ТУМАНДАН МАШҲУР СПОРТЧИЛАР ЕТИШИБ ЧИҚАРМИКАН?

Спорт мутахассиси Орзу Хушвақтовнинг орзулари чакки эмас.

Аслини олганда, бошқа соҳаларга қараганда спортни равнақ топтириш учун кадрлардан зориқмаса ҳам бўлади. Негаки, туманда иккита спорт мактаби бор. Унга юзлаб ёшлар жалб этилган. Футбол мактаби, болалар ва ўсмирлар спорт мактаби дея аталган бу масканларда ёшларнинг маҳоратини ошириш, иқтидори учқунини алангалатиш, дарс ва машғулотлар савияси юқори даражада деб бўлмайди. Спорт мактаби директори Раҳмат Аҳмедов спорт мутахассислигига эга эмас, аслида физик. Футбол мактабининг директорини эса ахтариб тополмадик.

Республикада, вилоятда танилган ўнлаб спортчилар етишиб чиқмаётганлигининг сабаблари нимада? Эҳтимол, спорт мактаблари фаолиятини янада яхшилаш зарурдир?

Туман халқ таълими бўлимининг жисмоний тарбия ва спорт бўйича услубчиси Орзу Хушвақтов гурунгни ютуқлардан бошлади.

—Мен Ватанимизга муносиб спортчилар кўпайишини орзу қиламан. Ҳақиқатан ҳам раҳбаримиз Дўстқобил Қодировнинг ташкилотчилиги туфайли умумий ўрта таълим мактабларида дарслар савияси анча яхшиланди. Натижада вилоятдаги бир қатор мусобақаларда—футбол, қўл тўпи (ўғил болалар), баскетбол (ўғил болалар) ва бошқа айрим турлар бўйича беллашувларда ютуклар қўлга киритилди.

Лекин, 14-, 19-, 3-, 46-мактабларнинг стадионларини талаб даражасида деб бўлмайди. Сабаби, уларда спорт турлари бўйича беллашувлар ўтказиш учун шароит йўқ. Иккинчидан, мактаблардаги ўқувчиларнинг кўпчилиги жисмоний тарбия дарсларида махсус спорт кийимида бўлмайдилар. Учинчидан, туманда спорт анжомлари ва кийим-кечаклари билан савдо қиладиган махсус дўкон йўқлиги ҳам қийинчиликлар туғдираяпти.

—Туманда 1999, 2000, 2001 йилларда жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш учун маблағ ажратилмаган,—дейди қуйинчак мутахассис Абдумурод Тўраназаров.—Спорт тадбирларини ўтказиш учун маблағ бўлмагач, аҳвол қандай бўларди? Тумандаги махсус мактаблар ўз спорт иншоотларига эга эмас. Атиги битта футбол клуби бўлиб, у ҳомийлар йўқлиги учун фаолият кўрсатмаяпти.

Ҳар бир спорт тури бўйича саккизта федерация ташкил этилган. Аммо уларнинг айримлари номигагина борлиги ташвишланарлидир.

Музрабодда ҳар йили бир нечта муҳташам бинолар қад ростлаяпти. Лекин спорт, соғломлаштириш иншоотлари, санаторий, профилакторий, стадионлар қуриш эътибордан четда. Ҳатто режалаштирилмаган ҳам.

Туманда ҳам бир неча йиллардан буён пахта ва бошқа айрим қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштириш бўйича режалар уддаланмай келаётир. Саноат, маданий-маиший, коммунал хизмат соҳаларида ҳам ютуқлар мақтанарли даражада, деб бўлмайди.

ҲОТИМА ЎРНИДА

Тўғри, хўжалик, корхона, ташкилот раҳбари ишлаб чиқариш бўйича белгиланган режани уддалаш учун елиб-югуради. Пахта, ғалла ёки саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш режалари бажарилмай қолса, ҳатто ишдан бўшатилади. Аммо ҳозиргача бирор раҳбарнинг спортга ўгай кўз билан қарагани учун танбеҳ ёки огоҳлантириш олганини ҳеч ким эсламайди.

Хуллас, муаммолар оз эмас. Бироқ туман ҳокими Рамазон Худойбердиев, вилоят жисмоний тарбия ва спорт қўмитаси раиси Эргаш Худоёров ва бошқа мутасаддилар ташкилотлар раҳбарлари энг муҳим соҳага эътиборсиз қарамоқдалар. Акс ҳолда, туманда машҳур спортчилар етишиб чиқиши тезлашган бўлур эди.

Спорт инсонга сув билан ҳаводек зарур соҳа, кишиларни чиниқтиришга, соғлом ва бақувват қилишга кўмак берадиган асосий воситалардан бири. Бу долзарб масала қайси жойда унутилар экан, спортдек муҳим ижтимоий соҳанинг ўша туманда инқирозга юз тутиши аниқ.

Жовли ХУШБОКОВ,
журналист

ХАЛҚАРО АЛОҚАЛАР МУСТАҲКАМЛАНАВЕРАДИ

— Институтимизга ТАСИС-ТЕМПУС дастури асосида 415 ЭКЮ миқдоридаги Европада ишлаб чиқарилган энг замонавий технологик жиҳозларни ўрнатдик, — дейди Тошкент Тўқимачилик ва енгил саноат институти ректори Ҳалима Алимова. — Институтимизда бешта факультет бўлиб, саккиз йўналиш бўйича талабаларга таълим берилади. Шуни таъкидламоқчи эдимки, биз Ватанимизга малакали матбаачиларни ҳам етказиб беришда ўз ҳиссамизни қўшяпмиз. Шу соҳани ривожлантириш мақсадида Германиянинг машҳур "Гейделберг" фирмаси ҳамда Берг университети матбаа ўқув-консультатив марказлари билан шартнома тузганмиз. Бу эса, бизга 500 минг Дойч Марка миқдоридаги матбаа ўқув маркази очиш имконини берди ва халқаро алоқаларимиз нуфузини янада ошганлигини кўрсатди. Институтимиз Халқаро тўқимачилар академияси, Халқаро ипакчилик уюшмаси, Халқаро матбаа ташкилотига аъзодир.

Япония ҳукуматининг беғараз ёрдами туфайли Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти 4 миллион АҚШ доллари миқдоридаги энг замонавий жиҳозланган ҳамда кийим ва пойафзал бўйича алоҳида лабораторияларга, янги тўқув дастгоҳлар ва компьютерлар, аудио, видео синфхоналарига эга бўлди. Институт олимлари томонидан 800 дан зиёд илмий мақолалар тайёрланиб, шулардан 40 таси хорижий мамлакатларда нашр қилинган.

Институт талабаларга билим бериш билан бирга уларни иш билан таъминлашни ҳам йўлга қўйган. Мана 10 йилдирки, институтда "Кадрлар аукциони" ўтказилади. У "Ўзбек енгил саноати", "Ўзбек ипаги", "Ўзбек пахта саноати"га малакали мутахассислар тайёрлаб бермоқда. Бу йил институтни 487 талаба битиради ва ўз иш жойларига эга бўлишади.

Дилдора ТОИРОВА

ЖАҲОН ЧЕМПИОНАТИ 2002

ФИФА БОШҚАЛАРНИ АРАЛАШТИРМОҚЧИ ЭМАС

ФИФА Бутунжаҳон допингга қарши агентлиги—WADA вакиллари ЖЧ-2002 ўйинлари жараёнига аралашишига йўл қўймади. "WADA кузатувчилари иштироки илгаридан кўзда тутилмаган ва келишилмаган эди,-деб таъкидлади ЖЧ тиббий хизмати раҳбари Иржи Дворак.—Тадқиқотлар малакали мутахассислар томонидан олиб борилиб, ташқи кузатувчиларга ҳожат йўқ. WADA илгарироқ ФИФАга мурожаат қилганида эса бу соҳада муаммолар бўлмас эди. Биз эндиликда режамизга ўзгартириш кирита олмаймиз".

ДУРАНГ УЧУН МУКОФОТ

Англия терма жамоаси билан бўлган учрашувда эришилган дуранг учун Швеция терма жамоаси раҳбарияти футболчиларга дам олиш куни берди. Спортчиларнинг кўпчилиги кунни гольф ўйнаб ўтказди. Жамоа бош мураббийси Томми Седербергнинг айтишича, уларни бу тарзда рағбатлантириш янги-янги ғалабаларга руҳлантирар экан.

МИШ-МИШ ТАСДИҚЛАНМАДИ

Швеция терма жамоаси ўйинчси Фредрик Юнгбергнинг "Арсенал" (Англия)дан "Ювентус" (Италия)га ўтиши ҳақидаги овозалар бекор бўлиб чиқди. Сал илгарироқ инглиз ва итальян матбуоти "Қари синьорлар" лондонликлардан уни 20 миллион фунт стерлингга сотишни ёки Эдгар Давидсга алмаштиришни сўрашганини хабар қилганди.

"Ҳозир буни ўйлаб ўтиришга фурсат йўқ. ЖЧ-2002 ниҳоясига етгунича бу масалани ўйламоқчи ҳам эмасман",-деди Юнгберг.

300 ТЕЛЕКАНАЛ ИХТИЁРИДА

Футбол байрами телекўрсатувлари расмий тарқатувчиси — HBS компанияси Япония ва Жанубий Кореядан 1000 соатлик спорт томошасини олиб кўрсатишни мўлжаллаган. Жаҳоннинг 215 мамлакатидаги 300га яқин телеканаллар бундай имкониятни қўлга киритган. Йокогамадаги финал учрашуви, майда тафсилотларигача, 23 та телекамера орқали тасвирга олиниб, футбол мухлисларига тухфа этилади.

1998 йилда Францияда бўлиб ўтган ЖЧ телетомошалари умумий ҳажми 200 соатни ташкил этиб, уни жаҳонга тарқатиш 140 та телеканал ихтиёрида эди.

АҚШЛИКЛАР ЧЕМПИОН БЎЛСА...

Агар АҚШ терма жамоаси ЖЧ-2002 да чемпионликни қўлга киритса, ҳар бир футболчи ярим миллион доллар соҳиби бўлади. Финал учрашувидаги иштирок 346 минг 739, ярим финалдаги қатнашув 259 минг 783 долларга "баҳоланган". Аммо кейинги мукофотлар ҳам АҚШ футболчиларини норози қилмаса керак: уларнинг ҳар бири ЖЧ-2002да иштирок этгани учун 25 минг "кўк"идан олиб, бунинг устига ҳар бир ўтказилган учрашув учун 2500 доллар қўшимча маблағни қўлга киритади. Борди-ю, Брюс Аренанинг жамоаси гуруҳдан чиқа олса, футболчилар яна бир миллион 850 минг долларни ўзаро бўлишиб оларканлар.

ИНТЕРНЕТ ЧЕМПИОНАТИ

"Жанубий Корея ва Японияда ги футбол байрамини ҳақли равишда "биринчи жаҳон Интернет чемпионати" деб аташ мумкин,-деди ФИФА вакили Кейт Купер. —Афтидан, бу сафар Сидней Олимпиадаси ҳам бу соҳада мағлубиятга учрайдиганга ўхшайди. Ишонмасангиз, солиштириб кўринг: турнирнинг биринчи тўрт кунини ўзида Жаҳон Кубогининг расмий сайти - Worldcup. comга 165 миллион киши ташриф буюрган. Австралияда бўлиб ўтган олимпиаданинг уч ҳафтасида 230 миллион мижоз Интернетга мурожаат қилган."

Куперинг айтишича, ташриф буюрувчиларнинг 52 фоизи инглиз, 13 фоизи япон, 8 фоизи хитой, 4,5 фоизи корейс тилидаги web-саҳифаларидан фойдаланишни афзал кўришган.

Бундан ташқари, ЖЧ-2002нинг тантанали очилиш маросими ва илк учрашувини жаҳондаги 500 миллион телемухлис томоша қилган.

ЖАРИМА «КУРУҚ» БЎЛМАЙДИ

Жаҳон чемпионатлари тарихида биринчи бор ўйинчилар қоидабузарлик қилгани учун сариқ ва қизил карточка берилишидан ташқари жарима ҳам тўлайдиган бўлдилар. ФИФАнинг интизомий қўмитаси шундай қарорни қабул қилган. Унинг раиси Марсель Матье айтишича, жарима майдончасида атайлаб йиқилиш 2 минг швейцар франки туради. Чемпионат давомида олинган иккинчи сариқ карточка учун ўйиндан четлатилишдан ташқари 1000 франк жарима тўланади. Учрашувда битта қизил ёки иккита сариқ карточка билан сийланган ўйинчи 2000 франкни "чўзиб" қўяди.

Воҳид БОЙМУРОДОВ тайёрлади

ОТА МУРОДИ

... Уни сўроқлаб Қашқадарёнинг кимсасиз даштлари томон йўл олдик. Манзилга яқинлашган сайин ҳар хил ўйларга бордик: "Топа олармиканмиз, йўқми? Вилоят марказига кетган бўлса-чи?.."

Тасодифни қарангки, йўлда ўзини учратдик.

— Ҳу, ана, кўриниб турган минора бизники, - деди Мурод ака ва ўзи кўрсатган томон қараб хаёлга чўмди. Балки у ўз меҳнати маҳсули, ҳамкасбларининг сабр-бардоши, чўлу биёбонлар аро ўтган умри ҳақида ўйлагандир.

Узоқдан қараганимизда кимсасиз чўл бағрида фақат осмонўпар минорагина кўзга ташланиб, яқинлашганимиз сари унинг атрофида ўрмалаётган баҳайбат машиналарнинг гуруллаши, пайвандчилар дастгоҳи "тиғи"дан чақнаётган учқунлар майдондаги иш суръатидан далолат берарди.

— Эртага минора топширилиши лозим, - дея гап бошлади Мурод ака.. — Йил бошида "Қоровулбозор нефтгазқидирув" экспедициясига қарашли "Наврўз" майдони минорасини топширдик. Буниси эса "Косон нефтгазқидирув" экспедициясига қарашли "Хаппан" майдони...

Дарвоқе, ёдимиздан кўтарилай, дебди: ҳикоямиз қаҳрамони Мурод Шомуродов — "Ўзбурғунефтгаз" АКга қарашли "Минора қурилиш" экспедициясининг катта иш бошқарувчиси.

Отам Равшан Шомурдов 35 йилдан буён шу соҳада ишлайди: оддий ишчи, бош механик, экспедиция раҳбари... Мени ҳам шу соҳага йўналтирган, зарур маслаҳатини аямаган падари бузрукворим. Дастлаб ишни оддий ишчиликдан бошлаб, Муборак индустрия техникумида ўқидим. Ҳозир ўттиз нафарга яқин ҳамкасбим билан елкама-елка ишлаб турибман. Иш ҳақимиз ёмон эмас, ўртача эллик минг сўм. Ижтимоий ҳимоя учун маблағ ҳам ажратилган.

— Қийинчиликлар ҳам борми?

— Ҳар бир касбнинг завқ-шавқи билан бирга қийинчилиги ҳам бўлади. Мана бугун ўзингиз гувоҳсиз: Ҳаво очиқ, атроф ям-яшил, лолақизғалдоқлар чўлни безатиб турибди. Лекин ёз пайтида бу ерлар "ёнади", ишимиз эса тўхтамайди. Бурноғи ва ўтган йилларнинг жазирамаларида ҳам бошқа майдонлардаги миноралар қурилмалари ҳамиша муддатидан илгари фойдаланишга топширилган. Бу йил ҳам шундай бўлиши тайин. Шу ўринда жамоамизга доимо бош-қош экспедициямиз бошлиғи моҳир мутахассис Рашид Тўхтабоевнинг хизматини, куйинчаклигини алоҳида таъкилаб ўтгим келади.

Мурод ака билан хайрлашар эканмиз, беихтиёр унинг отаси ҳақида айтган бир шингил ҳикояни эсладик. "Ўғлим Муроджон, — деган эди у киши, - сен изимдан бориб, нефть ва газ қидирувчилик касбини пухта эгалласанг, дейман. Муродим шу!"

Ота изи — хайрли из, дейдилар. Равшан отанинг муроди ҳосил бўлди, ўғлининг ҳам...

Ихтиёр УМАРОВ

ТАЛАБА — ГИЁҲВАНДЛИККА ҚАРШИ

Айни дамларда дунё бўйича 200 миллион киши гиёҳванд моддалар истеъмол қилади. Шулардан 10 миллиони нашани мунтазам чекишлари, 30 миллиони афюн таблеткаларини ичиши, 13 миллиони кокаин ҳидлаши ва 8 миллиони героин моддасини игна орқали баданга юбориши аниқланган. Бунга асосий сабаблардан бири, албатта, ёшларнинг ўзи тушунмаган ҳолда, ушбу моддаларни татиб кўриши баҳонасида организмнинг ўрганиб қолишидир. Натижа эса ёш умрни бевақт хазон бўлишига олиб келади. Буни ҳозирда кўпчилик англаб етган. Гиёҳвандлик—аср вабоси эканлиги бутун дунё аҳлини ташвишга солиб келмоқда. Унинг салбий оқибатларига деярли ҳар биримиз гувоҳмиз. Шу боис ҳам ҳукуматимиз, жумладан ҳуқуқни муҳофаза қилиш идоралари томонидан гиёҳвандликка қарши кураш борасида бир қанча тадбирлар амалга оширилмоқда. Жойларда ўтказилаётган тарғибот-ташвиқот ишлари, кўрик-танловлар, профилактик изланишлар шулар жумласидандир. Биргина мисол, Андижон вилоят ички ишлар бошқармаси томонидан ўтказилган профилактик тадбир давомида жорий йилнинг биринчи чорагида 39 маротаба гиёҳванд моддалар истеъмол қилган ҳолда жиноят содир этилишининг олди олинди. Ички ишлар бошқармаси томонидан ўтказилаётган яна бир тадбирлардан бири "Оғусиз дунё сари" кўрик-танловидир. Мана, уч йилдирки, ушбу тадбирни ўтказиш анъанага айланиб қолди. Бу йил ҳам у белгиланган дастур асосида уч босқичда ўтказилмоқда.

Кўрик-танловда мактаб ўқувчилари, ўқув муассасалари жамоалари, талабалар, спортчилар, кино-видеоҳаваскорлар, рассомлар, шунингдек иллатларни тубдан йўқ қилиниши ҳамда келажакда соғлом авлод тарбияланиши учун масъул бўлган шахслар иштирок этади.

Тадбир якуни вилоят ички ишлар бошқармаси томонидан гиёҳвандликка қарши курашдаги амалий ишлар ва гиёҳвандликнинг оғир асоратларини акс эттирувчи театрлаштирилган шоу-дастури намойиш этилиб, ёшлар севган санъаткорлар иштирокида концерт уюштирилади.

Кўрик-танлов ғолибларига шоу-дастур давомида таъсисчилар томонидан белгиланган мукофотлар топширилади. Тадбирлар давомида айниқса, Андижон Давлат университети талабаларидан иборат тарғибот гуруҳи жойларда учрашувлар ташкил этиб, гиёҳвандлик иллатлари ҳақида тенгдошларига тушунтириб, бу борада амалга оширилаётган ишларда фаол қатнашмоқдалар.

Бахтиёр АЗИМОВ,
милиция катта лейтенанти

Эрик ФИХТЕЛИУС

ЖУРНАЛИСТИКАНИНГ ЎН ҚОИДАСИ

(Давоми, боши ўтган сонларда)

Юзлаб жўнатилган хатлардан биронтаси ҳам ўша куни унга келтирилмади. Хатларнинг кўп қисмини ўз почта қутисидан учинчи кун олган бўлса, қолганларини яна бир неча кундан кейин олди. Рубиновга энг кейин, энг кечикиб келган хат почта ишига жавобгар бўлган идора-алоқа вазирлиги ёнидаги қутига ташланган хат эди. Энди муаллифда тайинли маълумот, далиллар, тафсилотлар бор-у, бироқ мақола ёзиш учун ҳали тизимли бир мавзу лозим эди.

Лев Толстой музейида ёзувчининг кўпгина ёзиқлари ва хатлари сақланади. Омади юришган Рубинов шу ерда почта тамғаси тайинли бўлган хатни топиб олди. 1890 йилнинг 22 январида Лев Толстой Москвадан Петербургдаги оммавий кутубхона директорига хат жўнатади. Почта тамгаси хат адресатга эртаси куни етиб борганлигидан гувоҳлик беради. Ўша пайтда поезд Москвадан Петербургга 14 соат юрганлигини ҳисобга олинг. Рубинов тажриба ўтказган вақтда эса "Москва – Ленинград" тез юрар поезди қатнарди. Рубинов яна бир хат йўллади. Бу гал у бир вақтлар Толстой яшаган кўчадан Ленинград кутубхонаси директорига хат жўнатди. Бу хат адресатга биласизми, неча кунда, 4 кунда зўрға етиб борди.

Рубинов олиб борган журналистик тафтиш кўрсатдики, совет замонасига нисбатан Толстой даврида почта анча илдам ишлаган экан. Хат эса шундай бир тайинли далил эдики, алоқа вазирлиги ундан қочиб қутила олмас эди.

Тайинли тафсилот заминида ошкор қилувчи танқиднинг портлатувчи кучи яшириниб ётиши мумкин.

Ҳозирланмоқ ва эшитмоқ!

Дейдиларки, интервью санъатдир. Санъат эса чегараловчи қоидалар ва кўрсатмаларни ёқтирмайди. Бироқ, айни пайтда энг истеъдодли, қобилиятли рассом ҳам тасвирлаш ўз ижодини тасвирлаш қоидаларини ўрганишдан бошлайди. Балки, келажакда уни бузиш учунми! Интервью репортёрдан муайян қоидаларга амал қилишни талаб этади, гарчи самарали интервью яхшилаб савол беришдан анча кенг қамровли ҳодиса бўлса ҳам.

Келинг интервью олиб бориш йўсини ҳақида эмас, балки интервью олиш усули ҳақида гаплашайлик. Агар буни яхши ўзлаштирсак, биз шундай саволлар ўйлаб топамизки, жавоблари довдиратадиган, тагдор ва ошкор қилиб ташлайдиган бўлиши мумкин.

Ҳозирланиш

Муҳимларнинг муҳими репортёрнинг интервьюга изчил киришувидир. Гап мавзуси ҳақида у бемалол фикрлайдиган, ҳатто у ҳақида интервью берувчидан ҳам билмайдиган бўлиши керак. Журналист тўсатдан, кўпол саволлар (бу ўртача савиядаги оммага мос келади) бериши лозим деган фикр нотўғридир. Фақат масаланинг моҳиятига тушуниб етадиган инсонгина салмоқли савол қўя олиши мумкин. Илк, дастлабки савол баъзан бошқаларга жуда жўн, содда бўлиб туюлиши мумкин, аммо журналист бундай савол қўйишидан мақсади бўлади. Интервьюга тайёрланиш дегани, биз берилган саволга қандай жавоб бўлишини олдиндан тахминий бўлса ҳам билиш деганидир, бундай ҳоллар кейинги муқобил саволларни ҳам аввалдан ҳозирлаб қўйиш мумкин. Журналист гап тайинли масала ҳақида кетадиган интервьюларга, масалан, тайинли лойиҳа ёки давлат комиссиясининг иши ҳақидаги интервьюларга ҳам тайёргарлик кўрмоғи лозим.

Аввал муҳокама қилинмаган ҳукумат ёки парламентнинг таклифлари ҳақидаги суҳбатга тайёргарлик кўриш ҳаммасидан қийин, бироқ бу ҳолатда ҳам репор ҳақида умумий тасаввурга эга бўлиши талаб Бу ўринли саволлар бериш ва қиёсий изоҳ имкон яратади. Газетадан кўчирмалар, ўз қайдлари, тернет саҳифалари журналистга мўлжалланаётган суҳбатга материал ташлашда ёрдам беради ҳамда интервью берувчи назарида чаласавод бўлиб кўринишдан асрайди. Ҳозирлик кўришнинг яна бир йўли мазкур соҳани яхши ўзлаштирган кишилар билан суҳбатлашиб, маълумот тўплаш ёки интервью берувчи киши билан олдиндан суҳбатлашишдир.

Ҳозир радио ва телевидениеда олдиндан интервью атамаси тез-тез ишлатиб турилади, бунинг маъноси дастурни олиб борувчи ёки таҳририят тадқиқотчи журналистнинг интервьюга таклиф этилган кимса билан то кўрсатув ёки эшиттириш ёзиб олингунга қадар уюштирилган суҳбатидир. Бу олиб борувчи ёки репортёрга масалани қанчалик тўғри қўйилганини аниқлаш, маълумотларни текшириб кўриш имконини бериш билан бирга суҳбатдошининг ҳам мўлжалланаётган мавзуни тасаввур қилишига кўмак беради. Бу йўсин журналистга ўша соҳада билим олиш ва суҳбат мавзусига кириб бориш имконини беради.

Ҳозирлик кўриш бирор шахс портрети билан боғлиқ ишларда ҳам кам аҳамият касб этмайди. Маълумот тўплаш учун ўша шахснинг дўстлари билан суҳбат, қаҳрамоннинг ишдошлари билан учрашиш, қаҳрамонининг аввалги интервьюларини эшитиш ва кўриш, унинг мақолалари ва нутқларини кўриб чиқиш кабилар тайёргарлик ишларининг табиий таркибий қисмларидир. Бироқ мана шундай жиддий тайёргарлик асосида журналист ўзи тўплаган маълумот юки остида қолиб кетиши ҳавфи ҳам бор. Муҳокама манбаи бўлмиш ҳодиса ёки шахсни ташқаридан туриб кузатиш натижалари кўп ҳолларда бир портретдан иккинчисига кўчириб ўтказилади. Мужмаллик, афсона, нотўғри ахборотлар вақт ўтиши билан мустаҳкам ўрнашиб кўрсатув ва маҳолалардан ўрин ола бошлайди. Бора-бора интервью қаҳрамони қандайдир афсонавий бир инсонга айланиб қолади. Архив материаллари асосида интервью-портретга тайёргарлик кўрувчи журналист олд фикр домига тушиб, мазкур шахс ҳақидаги якка шахс қараши, тасаввурига берилади ва журналист учун ушбу кишининг аслида ҳозир нималар деётгани, қилаётгани аҳамиятсиз бўлиб қолади. Интервьюга тайёргарликнинг энг муҳим шартларидан бири ишга билиб ёндошишдир.

Саволни тўғри қўйиш

Аслида мукаммаллик назаридан интервьюга ҳозирлик кўраётган репортёр соатлаб кутубхонада китоб, маълумотнома, газеталар, архив ёзмаларини ўқиб, титкилаб ўтириши, айни чогда олд интервью уюштириши ва маълумот тўплаш учун суҳбатлар ўтказишга ҳам улгуриши керак бўлади. Лекин муҳарририятнинг тиқилинч ишлари, асабий ҳолати, улгуриш зарурияти каби асл вазиятдан келиб чиқилганда, ишлар доим бошқача кетади. Кўпинча интервьюга ҳозирлик жараёнида ўз касбдошлари билангина маслаҳатлашиб ҳам зўрга олишга улгуришадилар.

(Давоми бор)

Фарҳод РЎЗИЕВ ва
Абдуқаюм ПАРДАЕВ таржимаси

LARZA

ҚУЛАШ

Ёки Майк Тайсоннинг чекинаётганлиги ростми?

Боксда Луиснинг даври келди.

Дунё профессионалларининг рингида ҳали Майк Тайсон ҳеч кимга тан бермаган эди. Ҳеч қачон қақшатқич муштлашув ва мағлубиятдан сўнг рақибининг юзини меҳр билан силаб қўймаганди. Англиялик Леннокс Луис темир мушт Тайсонни шунга мажбур этди. Охири Тайсон Луисни енга олишидан умидини узди. Жаҳон чемпионлиги унга насиб этмади.

Мағлубиятнинг фожеали томони жуда кўп. Демак, бу оддий енгилиш эмас. Эҳтимол, қулаш десак масалага янада аниқроқ тус берган бўламиз. Биринчидан, собиқ жаҳон чемпиони Майк Тайсон илгариги абжирлигини ишга сололмади. Шундан тушунса бўладики, Тайсоннинг муштлашув услуби Луис учун ҳеч гап эмас. Уни тезкорлик билан бир-икки раундда ютиб бўлмайди. Тайсон буни эплолмади. Иккинчидан, Тайсон умрида биринчи марта рингда ҳали жанг тугамасданоқ ортга чекинди, умидсизланди. Рингда рефьеридан паноҳ кутди. Дастлабки нокдаун ҳолатидан сўнг Луисга бугун қучи етмаслигини АҚШга, бутун дунёга сездириб қўйди, ўзини ўнглаб ололмади. Учинчидан, ҳали учрашувнинг ярми ҳам ўтмасдан Луиснинг қаршисида ниҳоятда ожиз эканлигини бўйнига олди. Тўртинчи, бешинчи, олтинчи раундан сўнг нима бўлганда ҳам фақат йиқилмаслик чорасини излади. Луис буни англаб қолди. Еттинчи раундга келиб, Тайсон бутунлай таслим бўлди ва саккизинчи раундда борбуди, ҳурмат-обрўси-ю, профессионаллик шоҳсупасидаги бўйсунмаслик фазилатларини Луисга топширди. Бу нафақат Тайсон ёки АҚШнинг, балки бутун дунёнинг алами. Шу куни ҳамманинг ич-эти ларзага тушди. Рингнинг қоқ ўртасида машҳур ва енгилмас "қирол" қулаб ётар экан, ўзининг "вақти" ўтганлигини ботиний ишонч билан тан олди. Қўлини пешонасига қўйиб, мағлубият оғриғидан юзлари тиришиб азобланди. Қабоғидан тирқираб қон келди.

Қисқача қилиб айтганда, бу ҳам дунёнинг бир қилмиши, холос. Энг ачинарли жиҳати шуки, бугун АҚШ ўз чемпионини жамики туҳмат ва азоблардан сақлаб ололмади. Тайсон бундан бир неча йил олдин ўзини олдириб қўйган эди. Йиллар давомида унинг юзига чапланиб келган муштумзўрлик, шафқатсизлик иллатларининг ярми ёлғон, ярми чин. Қаердаки битта зўр чиқса, уни ҳамма рақиблар, номдорлар чақа бошлайди. Туҳматлар, дашномлар, таъналар ёғдирилади. Шундай пайтда унга мустаҳкам ҳимоя зарур бўлади. Афсуски, Тайсон кейинги йилларда ёлғизланди. Бир томондан Холифильд ва Раҳмон, иккинчи томондан Луиснинг атрофидагилар унга маънисиз ташланиб турди. "Адолатпешалар" эса бўлганбўлмаган, қилинган-қилинмаган ишлар сабаб Тайсоннинг пулини шилиш, жонига жароҳат етказиш, қудратига ишончсизлик уйғотиш билан банд бўлди. Оқибатда жаҳонгир қулади.

...Зўрга барибир тан бериш керак. Ушбу аср жанги давомида жаҳон чемпиони Луис ўзининг ҳақиқий профессионал эканлигини намоён этди. Тайсон билан сал кам саккиз раунд муштлашса ҳам ўзини тута билди. Руҳиятини, сабр-бардошини йўқотмади. Бу билан бундан буён ўша оғир вазнли профессионал боксчилар учрашувида Тайсонча услуб чемпионларга панд беришини исботлади. Луиснинг зўрлиги шунда билиндики, саккиз раунд давомида бирор жойи жиддий лат емади. Худди шу куни Тайсон билан эллик раунд жанг олиб борса ҳам енгилмаслигини ошкора этди. Демак, ҳақиқий профессионаллик XXI асрда худди шундай бўлиши лозим экан.

Тайсон-Луис жангидан сўнг ҳамманинг шуурини фақат бир гала савол эгаллаб олди: "Майк Тайсон бундан буён ўзини тутиб олармикан? Тайёрланиб, тайёрланиб Луисни қайтадан енга оладими? Ёки шу билан Тайсон тамомми?" Тикланиш учун Тайсонда вақт бор, албатта! Гап биргина Луис-Тайсон муштлашувининг бориши ҳақида кетар экан, бу, албатта, профессионаллик қонун-қоидаларига, Тайсон ва Луиснинг хатти-ҳаракатига ҳамда бутун АҚШнинг ихтиёрига боғлиқ. Мана, Холифильд қирқ ёшни ҳам қаршиладики, ҳамон жаҳон чемпионлиги учун рингга чиқади. Хуллас, Тайсоннинг имкониятлари ҳам тўлиқ пучга чиққани йўқ, ҳали. Энди профессионал боксда Луиснинг даври келди. Қолганини вақт кўрсатади.

Нормурод МУСОМОВ,
«Turkiston» мухбири

ТОШКЕНТ МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ ТЕХНИКУМИ

2002-2003 ўқув йилига қабул эълон қилади:

9-синф ҳажмида кундузги бўлимга:
Ўқиш муддати 3 йил
1. Ҳуқуқшунослик
2. Бухгалтерия ҳисоби
3. Сартарошлик санъати ва жозибали пардозлаш
4. Меҳмонхона Хўжалиги маъмури
5. Кимёвий тозалаш ва буюмларни бўяш

11-синф ҳажмида контракт асосида кундузги ва сиртки бўлимларга.
Ўқиш муддати 2 йил
1. Ҳуқуқшунослик
2. Бухгалтерия ҳисоби
3. Меҳмонхона Хўжалиги маъмури

Ўқувчилар миллий ва рус гуруҳларга қабул қилинади.

Бизнинг манзилгоҳимиз:
Тошкент шаҳри. Сирғали тумани Лутфкор кўчаси, 1-мавзе, 33 уй
Телефон: 57-77-77

7-DARS

Мана, навбатдаги ўқув йили ҳам ниҳоясига етиб, ўқувчилар ёзги таътилга чиқиб кетишди. Лекин бу шу билан мактаблар ўз фаолиятини якунлади, уч ойлик танаффус даврида ўқувчилар унутилади, деган гапни англатмайди.

Бу вақтда мактабларда таъмирлаш ишлари билан бир қаторда ўқув даврида дуч келинган камчиликлар ва муаммоларни бартараф этишга ҳаракат қилинади. Бир сўз билан айтганда, кейинги ўқув йилига тайёргарлик бошланади. Шу боисдан ҳам биз бу галги саҳифамиз қаҳрамонларини пойтахтдан бироз узоқроқ ҳудуд — республикамиз жанубий вилоятининг Қизириқ туманидаги 17-мактабдан изладик. Ўйлаймизки, ўқувчи ва ўқитувчиларнинг тилга олган фикр-мулоҳазалари мутасадди кишиларни ҳам бефарқ қолдирмайди.

Азиз АКРОМОВ олган суратлар

Қизириқ Сурхондарёнинг кенжа туманларидан саналади. Чўлда очилган қўриқ бўлгани боисми, бу ерда аҳолининг турмуш даражасини ошириш бирмунча меҳнат талаб қилади. Аммо энг асосийси, тупроғи ҳосилдор.

Буни тилга олаётганимизнинг бош сабаби шундаки, истаймизми, йўқми, туман иқтисодиётининг барқарорми ёки беқарорлиги мактаблар аҳволига таъсир этмай қўймайди. Болаларнинг билим қобилияти юзага чиқиши ва эртанги кунга ишонч билан боқиши ҳам албатта ана шу жиҳатларга ҳамда жойлардаги раҳбарларнинг эътиборларига боғлиқ. Биз тилга олаётган Қизириқ туманидаги 17-мактабнинг ҳам аҳволини тасаввур этиш мушкул эмас. Юртимиздаги аксарият мактаблар сингари бир неча бор таъмирланган, ҳар ҳолда бироз эски бўлгани билан мактаб маъмуриятининг эътиборлиги боис фойдаланиш қобилиятини йўқотмаган.

530 ўринли мактабда 932 нафар ўқувчи таълим оларкан. Бундан кўриниб турибдики, дарс икки сменада ташкил қилинган. 55 нафар ўқитувчи болаларга сабоқ бермоқда. Шундан 36 нафари олий маълумотли, 16 нафари тўлиқсиз олий ҳамда 3 нафари ўрта махсус маълумотга эга. 12 нафар ўқитувчи олий тоифага эга экан.

Қувонарли жиҳати шундаки, ўқитувчиларда билим олишга қизиқиш кучли. Тўлиқроқ айтганда анча-мунча ўқитувчини шошириб қўядиган шашти бор. Агарда сизда шубҳа бўлса, келинг, яхшиси уларнинг фикрларига қулоқ тутинг:

(Аввало шуни айтиб ўтиш керакки, бир синф ўқувчиларини атайлаб бизга рўпара қилишмади. Мактаб директори Бахтигул Бўтаева билан суҳбатлаша кета туриб, қаршимиздаги эшикни очиб кирганимиз — 9-синф ўқувчилари бўлди. Биз мактабда бундан бироз илгарироқ бўлганмиз. У кезда мактабларда дарс ўтилаётганди).

Бахтигул БЎТАЕВА, Мактаб директори:

— Ўқувчиларнинг илмга бўлган муносабати сусайиши сабабларини биз кўпинча мактаб маъмуриятига, ўқитувчиларга ағдариб қўя қоламиз. Аммо ўзимиз қанчалик фарзандимизга эътиборли эканлигимизни унутиб қўямиз. Камдан-кам ота-она мактабга келиб, боласининг таълим-тарбиясига қизиқади. Ростини айтганда, кейинги вақтларда бирон киши келиб суриштирганини эслолмайман. Аксинча, баъзида "Фалончи ўқитувчи унақа, писмадончи бунақа", деган туппа-тузук ўқитувчининг ҳурматини ерга урадиган ота-оналарнинг сўзлари қулоққа чалиниб қолади.

Ўйлайманки, ўқитувчининг илм савияси қандай бўлмасин боланинг онгини бундай заҳарламаслик лозим. Чунки бола барча ўқитувчиларни шундай экан, деган хулосага келади. Қолаверса, бироз ўрганаётган билимини ҳам ташлаб қўяди. Алал-оқибат бу кимга зарар, ота-онасининг ўзига эмасми?

Баъзида кўз олдингизда айрим ота-оналар "ўқиганинг билан ҳеч нарсага эришолмайсан"-дея болани мактабдан, илмдан совутади.

Фарзандига нари борса уч-тўрт минг сўм турадиган дарслик-китоб олиб бермасдан, бошқа беъмани ишларга сарф-лайди. Кўриб туриб айтсангиз, "пул йўқ-ку!"-дея уялмай юзингизга ёлғон гапиради. Назаримда, буларнинг бари баҳона. Юртимизда ҳар бир киши дарслик-китоб олиб бериш қурбига эга. Фақат бирозгина интилиш ҳамда ота-оналик масъулиятини сезса, ҳаммасини уддалаш мумкин.

Биз бу билан мактабларда ҳамма нарса муҳайё, демоқчи эмасмиз. Бизнинг ҳам ўзимизга яраша муаммомиз бор. Бироқ ким қандай қабул қилади — билмадиму биз барча имкониятни ишга солиб ишлаяпмиз.

Нилуфар БЕРДИМУРОДОВА — ўқувчи:

— Мактабга келганимизга тўққиз йил тўлибди ҳамки, ҳануз компьютер аппаратини ишлатиб кўрмаганман. Фақат ЭҲМ дарслигидан ўрганамиз. Шунданми, компьютерни тушунадиган мутахассислар ҳам кам. Қани энди бизнинг мактабимиз ҳам бир дона бўлса-да, компьютерга эга бўлса — барчамизнинг кўнглимиздаги гап бўларди. Бундан ташқари, тўғри тасаввур ҳосил қилишга ёрдам берадиган амалий ўқув қуроллари ҳам етишмайди. Борлари ҳам эскириб қолган.

Дилафрўз НАСРИДДИНОВА — ўқувчи:

— Мактабимизда мусиқага қобилиятли ёшлар кўпчиликни ташкил этади. Аммо мусиқа асбоблари етишмайди. Овоз кучайтиргич йўқ. Замонавий асбобларни қўя туринг, ҳатто рубоб топиш ҳам амри маҳол. Агар шароит бўлганида шу вақтгача бир нечта истеъдодли қўшиқчилар камол топиши турган гап эди.

Сирожиддин МУҲАММАДИЕВ — ўқувчи:

— Унга яқин тенгдошларимиз тўйларда кураш тушиб, яхши натижаларни қўлга киритишади. Шунданми, мактабимиз ўқувчилари орасида миллий курашга қизиқиш катта. Агар мактабимизда бунга етарли имконият бўлса, уларнинг қизиқиши эрта сўнмаган бўларди. Балки, Тоштемир Муҳаммадиев, Абдулла Тангриев сингари полвонлар етишиб чиқиб, мактабимиз, туманимиз номини тилларга туширармиди? Ҳозир бу ишларни йўлга қўйиш мақсадида ҳаракатлар бошланган. Умид қиламиз, кейинги ўқув йилидан машғулотлар бошлаб юборилади.

Сафаргул АЛИҚУЛОВА — ўқувчи:

— Бизни ўйлантирадиган жиҳати шундаки, ҳар йили турли нашрларга обуна бўламизу, лекин баъзида биронтасини ҳам қўлга олмай, йилни ўтказамиз. Суриштирсак, ҳеч ким тайинли жавоб айтмайди. Айрим ҳолларда бизнинг умуман эсимизда йўқ газета, журналларга ёзилганимизни билиб қоламиз. Назаримда, бугун кўпгина нашрларга эътибор сусаяётганининг бош сабаби ана шу жиҳатларга ҳам бориб тақалади.

Жаҳонгир МИРЗАЕВ — ўқувчи:

— Илгари мактабимизда турли фан тўгараклари бўлган, деб эшитамиз. Ҳозир уларни юритадиган ўқитувчи йўқлигиданми, деярли фаолият юритмайди. Кўпчилик ўйлайдики, "тўгараклар замондан ортда қолди", деб. Йўқ, ўзимиз замондан ортда қолганмиз. Ишонамизки, кўпчилик ўқувчилар тўгаракларга қатнашади ва у тез орада ўз натижасини берган бўларди.

Кўриниб турибдики, ёшлар юрагида бор гапни юзага чиқарди. Булар ҳали "хамир учидан патир". Имкон қадар долзарб мавзудагиларини ёзиб олишга улгурдик. Суҳбатимиз эса узоқ давом этди. Айниқса, уларнинг кейинги вақтларида битирув оқшомларининг дабдабали тус олаётганлиги ҳамда ўқувчиларнинг ота-онани ҳол-жонига қўймай, "Ўтириш, гап-гаштак"ларни кўпайтираётгани хусусидаги танқидий қарашлари ўзгача таассурот қолдирди.

Бир сўз билан айтганда, қизириқлик ўқувчиларнинг келажакдан умиди катта. Буни уларнинг ҳар бир фанни чуқур эгаллашга қилаётган ҳаракатидан ҳам пайқаш мушкул эмас.

Бу ютуқларни қўлга киритишнинг ўзи бўлмайди, албатта. Мактабдаги аҳил жамоа, "бир ёқадан бош чиқаришга" интилиш, қолаверса, мактаб директори Бахтигул Бўтаеванинг раҳбарлик қобилияти — ишни тўғри ташкил эта билганлиги шундан далолат бўлса керак.

«TURKISTON» QALDIRG'OCHLARI

МУАЛЛИМ

Мактабга илк келганда,
Танимасдим бир ҳарфни.
Ҳатто ёза олмасдим,
Оддийгина "алиф"ни.

Меҳрингизга олиб мени,
Ўша ёшлик чоғимда,
Ўргатдингиз илм-ҳунар,
Мактаб — сабоқ боғинда.

Меҳр қўйиб ўқитдингиз,
Менга бердингиз таълим.
Бир умрга миннатдорман,
Сиздан, азиз муаллим.

Таъзим қилиб бош эгаман,
Юрагим тўла қувонч.
Кўзингизда порлайди нур,
Қалбингизда бор ишонч.

Бу ишончдир менга мадад,
Ҳар бир босган одимда,
Юрагимда у куч-қудрат,
Ҳар сония ёдимда.

Сиз бўлдингиз ҳаётимда,
Онам каби муқаддас.
Сиз ўргатган инсонийлик,
Доим ҳамроҳ, ҳамнафас.

БАҲОРИМ

Кўкламим, баҳорим сен яна келдинг,
Дилларда шодликдан қувончлар елди.
Мен сени орзиқиб кутган чоғ, ишон,
Ҳуснингни кўз-кўзлаб этдинг намоён.

Қизғалдоқлар қизил, гўё уялган,
Қиру далаларга тўшалган гилам.
Мустақил юртимга келдинг, баҳорим,
Файз ила бошланар ҳар бир наҳорим.

Гулларинг очилиб бўлсин чаманзор,
Қуёш нурин сочиб яшнасин диёр.
Гулшаним, баҳорим ўзинг яхшисан,
Йилу фаслларнинг гулдор нақшисан.

Мен сени қутлайман бу тонгда яна,
Умидим шу куни қилар тантана.

Ҳилола ХЎЖАНИЁЗОВА,
Қарши шаҳридаги 25-мактаб ўқувчиси

ТОШКЕНТ ИҚТИСОДИЁТ КАСБ-ҲУНАР КОЛЛЕЖИ

2002-2003 ўқув йилига қуйидаги мутахассисликлар бўйича 9-синф базавий маълумотга эга бўлган абитуриентларни кундузги бўлимга ўқишга қабул қилади:

1. Ҳуқуқий хўжалик фаолияти (ўзбек тилида)
2. Банк иши (ўзбек тилида)
3. Бухгалтерия ҳисоби (ўзбек тилида)
4. Молия (ўзбек тилида)
5. Менежмент (Рус тилида)
6. Халқаро бизнес (1-ўзбек тилида, 2-махсус фанлар инглиз тилида олиб борилади)

11-СИНФ МАЪЛУМОТИГА ЭГА БЎЛГАН АБИТУРИЕНТЛАРНИ КУНДУЗГИ ЎҚИШГА ҚАБУЛ ҚИЛАДИ:

1. Ҳуқуқий хўжалик фаолияти (ўзбек тилида)
2. Банк иши (ўзбек тилида)
3. Молия (ўзбек тилида)

Ўқиш муддати 9-синф базавий маълумотга эга бўлганлар учун 3 йил, 11-синф маълумотига эга бўлганлар учун кундузги бўлимда 1 йил.

Абитуриентлар математика, она тили ва адабиёт фанларидан тест асосида қабул қилинади.

Халқаро бизнес йўналишига абитуриентлар ўзбек, рус, инглиз тилларидан суҳбат ва математика, она тили ва адабиёт фанларидан тест асосида қабул қилинади.

Ҳужжатлар 2002 йил 15 июндан 1 августгача қабул қилинади.

Манзил: Шайхонтоҳур тумани, Ўкчи кўчаси, 73.
Мўлжал: Консерваториянинг янги биноси тўғрисида.

КЎЛГИ + ЮМОР

Бир киши янги уйланган ўртоғидан сўради:

— Хотининг билан қандай яшаяпсизлар?

— Биринчи ҳафтада мен гапирдим, у тинглади, иккинчи ҳафтада у гапирди, мен тингладим, энди иккаламиз гапиряпмиз, қўшнилар тинглашаяпти.

* * *

Бир бемор табибга деди:

— Тақсир, йўталим қолди, лекин нафасим қисилаяпти.

— Қўрқманг, тез кунда нафасингиз ҳам тўхтайди.

* * *

Сотувчи харидор аёлга шляпани кўрсатиб:

— Бу моданинг охирги "қичқириғи"!

— Охирги "қичқириқ" эрим нархини эшитгандан сўнг бўлади.

* * *

— Сиз нега хотинингизга қарта ўйнашни ўргатдингиз?

— Фойдаси бор-да.

— Қандай?

— Мен у билан ўйнаб машининг ярмини ютиб олдим.

Холхўжа БАДИЕВ тўплади

Абдурасул ҲАКИМОВ чизган расм

Рукн материалларини Шавкат АЛЛАНАЗАРОВ ва Чори ЖУМАҚУЛОВ тайёрлади

БОШҚОТИРМА

БЎЙИГА:

1.Ўзи катализатор бўлмаса ҳам реакцияда катализаторлар таъсирини тезлаштирадиган модда. 2.Протолитик назарияни таклиф этган даниялик олим. 4."СПИН"нинг маъноси. 6.Ионларнинг сувдан бошқа эритувчи молекулалари билан химиявий боғланиши. 7.Кристалл холатдаги олтингугуртнинг шакли. 8.Нуклид термини билан бир қаторда яна қайси терминдан фойдаланилади. 13.Электро манфийликка таъриф берган олим. 16.Кул ҳароратида суюқланадиган элемент. 17.Икки марта Нобель мукофотига сазовор бўлган аёл. 18.Валентликнинг маъноси. 20.Кислород даврий жадвалдаги қайси элемент билан бевосита реакцияга киришмайди.

ЭНИГА:

3.Урандан кейин жойлашган 16та элемент. 5.Биринчи бўлиб топилган нодир газ бирикмасининг номи. 9.Олмос кристалл панжаранинг қайси турига киради. 10.Энг қаттиқ элемент. 14.Индикатор атамасининг лотинча маъноси.

Тузувчи: Миркомил Аъзамов



Тошкент шаҳар Юнусобод туман ҳокимлиги томонидан Пирмуҳаммедов Дониёр Кадырович номига №1016481 рақамли берилган патент йўқолганлиги сабабли **бекор қилинади.**

I Тошкент Давлат Тиббиёт институти қошидаги Тиббиёт билим юрти томонидан Адылова Саодат Аскаровна номига 1990 йил №062043 рақамли берилган диплом йўқолганлиги сабабли **бекор қилинади.**

Выданный РСУз ОСВОД угл.штамп и кругл.печать считать **не действительными.**

Turkiston
МУАССИС: «КАМОЛОТ» ЁШЛАР ИЖТИМОИЙ ҲАРАКАТИ

Газета Ўзбекистон Давлат Матбуот қўмитасида № 00012 рақам билан рўйхатдан ўтган.

Босишга топшириш вақти-21.00
Топширилди 21.00
1 2 3 4 5 6

Офсет усулида босилган. Қоғоз бичими А-2.

Бош муҳаррир: Салим АШУРОВ

Таҳрир ҳайъати:
Ботир УБАЙДУЛЛАЕВ, Комил ЮСУПОВ, Аслиддин БОЛИЕВ, Юсуф ЖЎРАЕВ (Бош муҳаррирнинг биринчи ўринбосари), Рустам ҚОСИМОВ, Баҳодир МАХСИТОВ, Анвар ЖАББОРОВ, Ислом ҲАМРО, Ғайрат ШОУМАРОВ, Авазхон СОДИҚОВ, Насриддин МУҲАММАДИЕВ, Шоазим МИНОВАРОВ, Ғаффор ҲОТАМОВ, Абдуғани ЖУМАЕВ

Вилоят мухбирлари:
Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари бўйича — *Термизда:* 8-37-622 —3-53-88
Бухоро ва Навоий вилоятлари бўйича — *Бухорода:* 8-36-52 — 23-37-44
Сирдарё, Жиззах ва Тошкент вилоятлари бўйича — *Гулистонда:* 8-36-72 — 24-02-86
Фарғона, Андижон вилоятлари бўйича — *Фарғонада:* 8-37-32 — 24-54-61
Самарқанд вилояти бўйича — *Самарқандда:* 8-36-62 —34-43-89
Қорақалпоғистон Республикаси ва Хоразм вилояти бўйича — *Урганчда:* 8-362-22 — 6-50-55
Наманган вилояти бўйича — *Наманганда: 8-36-922 — 6-10-70*

Манзилимиз: 700083, Тошкент, Матбуотчилар кўчаси, 32.
Телефонлар: 133-95-97, Реклама бўлими: (3712) 133-79-69

Таҳририятга юборилган материаллар қайтарилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят нуқтаи назаридан фарқланиши мумкин.

«Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси босмахонасида чоп этилди.

Корхона манзили: «Буюк Турон» кўчаси, 41. Буюртма Г. — 556. Адади-8428

Газета таҳририят компьютер марказида терилди ва саҳифаланди

Навбатчи муҳаррир: Ойдин ЙЎЛДОШЕВА
Саҳифаловчи: Нодирбек ОРТИҚОВ